

innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Zamonaviy transport tizimi, mehmonxona xizmatlari, raqamli texnologiyalar va servis infratuzilmasining rivojlanishi turistlar oqimini ko'paytirish bilan birga hududlarning investitsion jozibadorligini ham oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm infratuzilmasini takomillashtirish orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, xizmatlar eksporti hajmi kengayadi hamda mahalliy byudjet daromadlari ortadi. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ekologik va barqaror turizmni rivojlantirish orqali hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlash mumkin. Shu sababli kelgusida turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmini oshirish, zamonaviy xizmatlar tizimini kengaytirish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shohruh MARDONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi,
Madina ANVAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

O'ZBEKISTONNING CHEKKA HUDUDLARIDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning chekka hududlarida MICE turizmini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari tahlil qilinadi. MICE turizmi global miqyosda iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanmoqda. O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, geografik joylashuvi hamda mehmondo'stligi bilan ushbu faoliyatning faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatiga ega. Maqolada chekka hududlarning tabiiy – geografik ustunliklari tahlil qilinib, ularni xalqaro biznes tadbirlar uchun zarur bo'lgan infratuzilmaviy va raqamli modellar taklif etiladi. Shuningdek, MICE turizmini rivojlantirish orqali hududlarda mavsumiylik muammosini bartaraf etish va mahalliy aholini bandligini ta'minlashning ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligi asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** MICE turizm, chekka hududlar, raqamli infratuzilma, iqtisodiy diversifikatsiya.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются стратегические возможности развития MICE-туризма в отдаленных регионах Узбекистана. MICE-туризм считается одним из ключевых факторов экономического роста в глобальном масштабе. Узбекистан, с его богатым культурным наследием, географическим положением и гостеприимством, имеет потенциал стать активным участником этого сектора. В статье рассматриваются природные и географические преимущества отдаленных регионов и предлагаются инфраструктурные и цифровые модели, необходимые для организации международных деловых мероприятий. Кроме того, обоснована социально-экономическая эффективность развития MICE-туризма с точки зрения устранения проблем сезонности в*

регионах и обеспечения занятости местного населения. Ключевые слова: MICE-туризм, отдаленные регионы, цифровая инфраструктура, диверсификация экономики.

Ключевые слова: MICE-туризм, отдаленные регионы, цифровая инфраструктура, диверсификация экономики.

Abstract. This article analyzes the strategic opportunities for the development of MICE tourism in remote regions of Uzbekistan. MICE tourism is considered one of the key factors of economic growth on a global scale. Uzbekistan, with its rich cultural heritage, geographical location, and hospitality, has the potential to become an active participant in this sector. The article examines the natural and geographical advantages of remote regions and proposes infrastructural and digital models necessary for organizing international business events. In addition, the socio-economic effectiveness of developing MICE tourism is substantiated in terms of eliminating seasonality problems in the regions and ensuring employment for the local population.

Keywords: MICE tourism, remote regions, digital infrastructure, economic diversification.

Turizm sanoati dunyo bo'yicha eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi va uning ichida MICE turizmi (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions – uchrashuvlar, rag'batlantirish safarlari, konferensiyalar va ko'rgazmalar) yo'nalishi iqtisodiyotning eng daromadli va barqaror segmentlaridan biriga aylandi. MICE turizmi nafaqat turistik oqimni diversifikatsiya qiladi, balki qishloq joylarida zamonaviy infratuzilmaning shakllanishiga turtki beradi. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga kiritilgan "Travel in Uzbekistan" dasturi doirasida 2026-yilgacha ichki turistlar soni 12 millionga, xalqaro turistlar soni esa 9 millionga yetkazish, turizm sohasida bandlikni 520 ming kishiga oshirish hamda umumiy qiymati 300 million AQSH dollariga teng turizm loyihalarini amalga oshirish orqali 25 mingta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 2019-yil 5-yanvardagi PF – 5611-son farmon bilan 2019-2025-yillarga mo'ljallangan Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, vizaviy rejimni liberallashtirish va turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha muhim vazifalar belgilangan²⁹³.

MICE turizm bozori hajmi 2023-yilda 805.8 mlrd. AQSH dollariga baholandi va 2032 yilga kelib, 1.445.5 mlrd. AQSH dollariga yetishi, 2024-yildan 2032 yilgacha 6,7% ga o'sishi prognoz qilinmoqda. Osiyo Tinch okeani mintaqasi MICE turizm bozorida o'sishning asosiy omili bo'lishi kutilmoqda, 2024-yildan 7.8% ga CAGR prognoz qilingan. Ushbu o'sishga hissa qo'shadigan omillar orasida tez iqtisodiy rivojlanish, ishbilarmonlik faoliyatining o'sishi va infratuzilmaga katta investitsiyalar kiradi. Xitoy, Hindiston va Singapur kabi mamlakatlar jahon darajasidagi imkoniyatlar va qulay biznes muhitini taklif etadigan asosiy MICE yo'nalishlari sifatida rivojlanmoqda.

O'zbekistonning turistik salohiyatini diversifikatsiya qilish sharoitida chekka hududlarning resurslari MICE segmenti uchun muhim xomashyo bazasi bo'lib xizmat qilmoqda. An'anaviy turistik markazlarda (Samarqand, Buxoro, Xiva) kuzatiladigan yuqori mavsumiylik darajasi chekka hududlarning salohiyatini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. MICE turizmi, an'anaviy ekskursiya turizmidan farqli o'laroq, yilning istalgan faslida barqaror talabni shakllantira oladi. Hozirgi kunda xalqaro forum va konferensiyalar faqat shahardagi yopiq zallar bilan cheklanib

²⁹³ <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>

qolmay, tabiiy muhit va tabiat qo‘yniga ko‘chmoqda. Bu esa mamlakatimizning hududlaridagi tabiiy landshaftlarni zamonaviy texnologik yechimlar bilan integratsiyalash orqali yangi turistik mahsulot yaratish imkonini beradi. O‘zbekistonning chekka hududlarini MICE turizmi uchun mavjud resurslari va infratuzilmaviy tayyorgarlik darajasiga ko‘ra 3 ta guruhga ajratish mumkin:

Korporativ yo‘nalishdagi tog‘li hududlar (Zomin, Bo‘stonliq, Xonobod). Ushbu guruhga kiruvchi hududlar MICE turizmining “Incentive“ (rag‘batlantiruvchi turlar) yo‘nalishi uchun mos keladi. Masalan, Jizzax viloyatining Zomin tumani o‘zining noyob tabiati va so‘nggi yillarda barpo etilgan zamonaviy mehmonxona majmualari bilan yirik kompaniyalarning strategik uchrashuvlarini o‘tkazish uchun “tabiiy “ muhitni yaratadi. Biznes tadbirlari faol dam olish va salomatlikni tiklash dasturlari bilan uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi.

Etno – madaniy va kreativ uchrashuvlar hududlari (Boysun, Nurota, Xiva atrofidagi cho‘l zonalari). Bu guruh hududlar xalqaro tashkilotlar vakillari uchun “Meetings” va kichik hajmdagi “Conferences“ yo‘nalishlarida aynan mos keladi. Surxondaryoning Boysun tumani yoki Navoiyning Nurota tizmalari o‘zining tabiiy turmush tarzi, hunarmandchilik maktablari va folklor an‘analari bilan ajralib turadi. Bunday hududlarda yopiq zallar emas, balki “ochiq osmon ostida” gi konferensiyalarni tashkil etish, xorijiy delegatsiyalar uchun madaniy antropologik tajriba taqdim etishi bilan yuqori qiymatga ega.


Ekologik va ilmiy – ma‘rifiy markazlar (Mo‘ynoq, Aydarko‘l, Termiz atrofidagi qo‘riqxonalar). Ushbu hududlar ixtisoslashgan “Exhibitions“ va ilmiy tadbirlar uchun mo‘ljallangan. Xususan, Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq tumani global ekologik muammolar, barqaror rivojlanish va “ yashil “ iqtisodiyot mavzusidagi xalqaro forumlar uchun noyob platforma vazifasini o‘taydi. Orol dengizining qurigan tubidagi “Kemalar qabristoni“ yoki Orolqum innovatsion hududlari ilmiy turizm va MICE hamkorligini birlashtiruvchi strategik nuqtalar hisoblanadi.

Ushbu guruhlash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning chekka hududlari bir – birini takrorlamaydigan turistik mahsulotlarni taklif qila oladi. Agar poytaxt Toshkent va yirik shaharlar (Samarqand, Buxoro) asosan yirik xalqaro sammitlar va davlat darajasidagi tadbirlarga ixtisoslashgan bo‘lsa, yuqoridagi qayd etilgan chekka hududlar korporativ sektor, ilmiy hamjamiyat va ijodiy guruhlar uchun mo‘ljallangan niche MICE bozorini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning chekka hududlari MICE salohiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, ularni to‘liq darajada xalqaro biznes maydoniga aylantirish yo‘lida bir qator tizimli muammolar mavjud. Masalan, MICE turizmi uchun vaqt omili eng muhim hisoblanadi. Ko‘pgina chekka hududlarda transport bog‘lanishining murakkabligi asosiy to‘siqlardir. Temir yo‘l va havo qatnovlarining yetishmasligi, shuningdek, avtomobil yo‘llarining sifati biznes – sayyohlarning bu hududlarga borishini qiyinlashtiradi. Yirik xalqaro tadbirlar uchun talab etiladigan tezkor va qulay transport xizmati chekka hududlarda hali yetarli darajada shakllanmagan.

Zamonaviy biznes tadbirlar yuqori tezlikdagi va uzluksiz internet aloqasini talab qiladi. Chekka tog‘li yoki sahro hududlarida yuqori aloqa tizimlarining yetib bormaganligi yoki 4G/5G qamrovining pastligi loyihalarini amalga oshirish

imkoniyatini cheklaydi. Undan tashqari, MICE turizmi standartlari oddiy hordiq turizmidan ancha yuqori. Chekka hududlarda professional event-menejerlar, protokol xizmati mutaxassislari, texnik operatorlar va chet tillarini mukammal biladigan servis xodimlarining yetishmasligi sezilmoqda. Mahalliy mehmonxona va dam olish zonalarida xalqaro darajadagi biznes – servis madaniyatining shakllanmaganligi xorijiy korporativ mijozlar oqimini cheklovchi omillardan biridir.



1-rasm. Xorijiy turistlar soni 2022-2025-yillar kesimida (mln. nafar)²⁹⁴

Statistik ma'lumotlarga ko'ra. 2022-2025-yillarda turistlar oqimining 77% ga o'sishi an'anaviy turistik markazlarda infratuzilmaviy yuklamaniing ortishiga sabab bo'lmoqda. MICE turizmi aynan chekka hududlarga yuqori daromadli segmentni jalb qilish orqali markazlardagi gavjumlik muammosini hal qilishi mumkin.

O'zbekistonda bir qator raqobat ustunliklariga ega: boy madaniy meros, xalqaro qiziqishlar, kuchli davlat qo'llab – quvvatlovi hamda tadbirlarni tashkil etish uchun nisbatan arzon xarajatlar. Biroq bularni amalga oshirish uchun ayrim muammolarni bartaraf etish ham zarur. Avvalo, MICE infratuzilmasini kengaytirish, shuningdek, transport va logistika tizimini yanada takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga mos mehmonxonalar sonini oshirish lozim. Yana bir muhim omil – malakali kadrlar tayyorlashdir. O'zbekiston xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlarini davom ettirishi, xorijiy ekspertlar ishtirokida treninglar va xalqaro akademik muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirishi lozim. Davlat – xususiy sheriklik MICE infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etishda katta rol o'ynaydi. Investorlar uchun soliq imtiyozlari va ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish kabi qulay sharoitlar yaratish ushbu sohada yangi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston xalqaro turizm ko'rgazmalari va forumlarida faol ishtirok etishi, ICCA, UNWTO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishi, raqamli texnologiyalar orqali targ'ibotni kuchaytirishi, O'zbekistonda MICE turizmiga bag'ishlangan maxsus veb-sayt yaratishi mumkin. Tadbirlar uchun onlayn ro'yxatdan o'tish va chipta sotish tizimlarini joriy etish, ishtirokchilar uchun mobil ilovalar

²⁹⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66309-2025-jilda-zbekistonga-11-7-million-nafar-turist-kelgan-2>

yaratish hamda tadbirlarni tashkil etish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UN Tourism (World Tourism Organization): Global Report on the Meetings Industry. 2023-2024 editions.
2. Mirzayev M. va Aliyeva M. Turizm asoslari. O'zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashryoti. – T.: 2011, – 288 b.

Gulnoza AXMADJONOVA,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA” kafedrasida o'qituvchisi

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat siyosati va turizmning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Unda mamlakatdagi boy tarixiy-madaniy meros, muqaddas qadamjolar hamda islom sivilizatsiyasi taraqqiyotiga hissa qo'shgan allomalar merosi ziyorat turizmining asosiy omili sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va boshqa hududlardagi mashhur ziyoratgohlarning turistik salohiyati haqida ma'lumot berilgan. Maqolada COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda turizm sohasini tiklash, infratuzilmani rivojlantirish va xorijiy sayyohlarni jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham yoritilgan. Ziyorat turizmini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti, xalq farovonligi va O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, madaniy meros, YUNESKO obyektlari, islom sivilizatsiyasi, muqaddas qadamjolar, ichki turizm, xalqaro turizm, turizm infratuzilmasi, mehmondo'stlik sanoati, diniy meros, sayyohlik salohiyati, turizm islohotlari, sayyohlik yo'nalishlari.

Аннотация. В данной статье освещаются проводимые в Узбекистане реформы по развитию паломнического туризма, государственная политика в данной сфере и экономическое значение туризма. В ней анализируются богатое историко-культурное наследие страны, священные места паломничества, а также наследие учёных, внесших вклад в развитие исламской цивилизации, как основные факторы паломнического туризма. Также представлена информация о туристическом потенциале известных мест паломничества в Самарканде, Бухаре, Хорезме, Сурхандарьинской области и других регионах. Кроме того, рассматриваются меры по восстановлению туристической отрасли в постпандемический период COVID-19, развитию инфраструктуры и привлечению иностранных туристов. Подчёркивается, что развитие паломнического туризма играет важную роль в укреплении национальной экономики, повышении благосостояния населения и укреплении международного авторитета Узбекистана.

Ключевые слова: Паломнический туризм, культурное наследие, объекты ЮНЕСКО, исламская цивилизация, священные места паломничества, внутренний туризм, международный туризм, туристическая инфраструктура, индустрия гостеприимства, религиозное наследие, туристический потенциал, туристические реформы, туристические направления..

Abstract. This article highlights the reforms being implemented in Uzbekistan to develop